TERMINOLOGIK LEKSIKANING TIL TIZIMIDAGI O‘RNI VA TERMINLARNING LISONIY TABIATI

Nasirova Malikaxon Toirjon qizi

Qo‘qon DU magistranti

Аннотация. В данной статье анализируется место терминологической лексики в языковой системе и её значение в научной коммуникации. Рассматривается лингвистическая природа терминов, источники их формирования, а также их семантические особенности. Кроме того, на научной основе исследуются взаимосвязи между терминологической и общеупотребительной лексикой. Особое внимание уделяется таким важным признакам терминов, как точность, однозначность и системность. Также анализируются особенности функционирования терминов в различных сферах и процессы их стандартизации. В результате формулируются общие выводы о месте терминологических единиц в языковой системе и их лингвистических характеристиках.

Ключевые слова: терминология, термин, терминоединица, антропоцентризм, художественный текст, лингвистическая природа, лингвистический анализ, номенклатура.

Abstract. This article analyzes the role of terminological lexis in the language system and its significance in scientific communication. The linguistic nature of terms, their sources of formation, and their semantic features are examined. In addition, the relationships between terminological and common vocabulary are considered on a scientific basis. Particular attention is paid to such essential characteristics of terms as precision, unambiguity, and systematicity. The functioning of terms in various fields and the processes of their standardization are also analyzed. As a result, general conclusions are drawn about the place of terminological units in the language system and their linguistic properties.

Keywords: terminology, term, terminological unit, anthropocentrism, literary text, linguistic nature, linguistic analysis, nomenclature.

Bugungi kunda lingvistik tadqiqotlar metodologiyasi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tilni sistemaviy o‘rganish XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan. Ushbu yondashuv “xususiy hodisalardan umumiy qonuniyatlarga o‘tish” tamoyiliga asoslanadi. Unda til birliklari alohida kuzatilib,

o‘zaro qiyos etiladi va shu asosda umumiy xususiyatlari aniqlanadi. Tilni sistema sifatida tadqiq etish lingvistik taraqqiyotda muhim bosqich sifatida xizmat qildi.

Ma’lum bir tildagi lug‘aviy birliklarning mazmuniy uyaga birlashtirish dastlab sharqda rivojlangan, keyinchalik ushbu jarayon yevropa tilshunosligi tadqiqotlarida ommalashgan. Shu sababli bu nazariya Yevropa tilshunoligi bilan uzviy bog‘lanib qolgan. Lingvistik tizim haqidagi bu qarashlar terminologik leksikani ham tizim sifatidao‘rganish zaruratini yuzaga chiqardi. Shu bois terminologiya ham o‘ziga xos ichki tuzilishga ega bo‘lgan tizim sifatida qaraladi.

Terminologiya til tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida sistemaviy xarakterga ega. Rus tilshunosligida bu masala dastlab D.S.Lotte tomonidan o‘rganila boshlangan. U terminlarning tizimli, mantiqiy va aniqligini asoslagan hamda terminologik tizim tushunchalar tarkibi bilan o‘zaro bog‘liq holda tuzilishi va shakllanishi lozimligini takidlagan. B.N.Golovin ham zamonaviy bosqichda o‘rganib, terminni kasbiy tushunchalarni ifodalovchi, tizim sifatida bog‘langan tushunchalar jami sifatida tariflagan. Mashhur rus tilshunosi V.M.Leychik ham terminlarni o‘rganishda sitemaviy yondashgan. U terminologiyani maxsus bilimlar sohasidagi tushunchalarni ifoda etuvchi lug‘aviy birliklar tizimi deb hisoblaydi.

O‘zbek tilshunos olimlari ham 70-80-yillardan e’tiboran ananaviy tilshunoslikka tayangan holda obyektni sistemaviy jihatdan o‘rganishga qadam qo‘ya boshladi. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida tilimizning sathlariga oid bir qancha ilmiy asarlar yozila boshlandi.

Lingvistikaning analitik tadqiqot metodi bilan shug‘ullangan tilshunos olimlarning kuzatishlariga ko‘ra, til haqidagi fanning statusi va rivojlanish yo‘llari haqida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1) lingvistika va boshqa fanlar integratsiyasi;

2) ilmiy metodlar gumanitarizatsiyasi va antropotsentrizm;

3) ilmning yangi sifatli kodlangan paradigmasini joriy qilish va innovatsiyasi. [5, 8]

Yuqorida qayd etilgan omillar tilshunoslikning zamonaviy bosqichdagi rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatadi. Xususan, lingvistikaning fanlararo integratsiyalashuvi hamda antroposentrik yondashuvning kuchayishi til birliklarini, ya’ni terminologik leksikani yangi nuqtayi nazardan tadqiq etish imkonini bermoqda.

Termin tushunchasi tilshunoslikda muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi. Termin ma’lum fan, texnika yoki kasb-hunar doirasida aniq tushunchani ifoda etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasidir.

Ma’lumki, terminologiya tushunchasi va terminga lug‘atlarda, ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflar keltirilgan. Bunga qaramasdan professor N.Mahmudov ta’kid etganidek, “taassuf bilan qayd etish joizki, na o‘zbek tilshunosligida, na dunyoning boshqa tilshunosliklarida hatto termin terminining yagona ta’rifi shakllangan emas. Terminologiya muammolari borasida dunyo til ilmida sonsiz-sanoqsiz tadqiqotlar yaratilganiga qaramasdan, hali-hamon “termin”ning yigirmaga yaqin tarif-definitsiyasi ilmiy iste’molda bo‘lib kelmoqda”. [8, 129] Terminlarning ilm-fandagi mavqeyi beqiyosdir va har bir sohada qo‘llaniladigan termin yoki uning ifodasi aniq bo‘lishi lozim.

Tilshunos olim H. Dadaboyevning ta’kidlashicha, terminlar fan va texnika sohasida qo‘llaniladigan maxsus birliklar bo‘lib, ular sun’iy ravishda yaratilgan yoki tabiiy tildan o‘zlashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bu kabi terminlarning qo‘llanish doirasi muayyan ilmiy maktablar tomonidan belgilanadi. Shuningdek terminlar o‘zaro iyerarxik munosabatga kirishib, yagona terminologik tizimni tashkil etadi va o‘z ma’nosini aynan shu tizim doirasida namoyon etadi. [1, 5]

Shunday qilib, terminlar nafaqat maxsus soha birliklari, balki tizimli va iyerarxik xarakterga ega bo ‘lgan til birliklari o‘laroq namoyon bo‘ladi va umumtil tizimi bilan uzviy bog‘langan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Tilshunos olim G‘.Ismoilov fikriga ko‘ra, A.A. Reformatskiy qarashlariga tayangan holda terminologik tadqiqotlarda terminlarning asosiy lisoniy belgilari haqida ikki xil yondashuv mavjud. Birinchidan, terminlarning nominativlik xususiyati, ikkinchidan esa ularning tushuncha bilan uzviy bog‘liqligi muhim hisoblanadi. [6, 164] Demak, terminlarning asosiy belgilaridan biri ularning nominativlik xususiyati va muayyan tushunchani ifodalash bilan bog‘liqligidir.

Termin ta’rifiga to‘xtalish jarayonida jahon tilshunoslarining bu boradagi qarashlarini keltirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, O.Vinokur fikricha, termin har doim aniq va ravshan bo‘lishi lozim. Terminlar tizimi ongli ravishda shakllantiriladi, ya’ni ular o‘z-o‘zidan, stixiyali tarzda yuzaga kelmaydi, balki jamiyat ehtiyoji asosida yaratiladi. [3, 230] Demak terminlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi va shakllanmaydi,

balki muayyan ijtimoiy ehtiyoj va ilmiy zarurat asosida ongli ravishda yaratiladi hamda aniq tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

D.Lotte ilmiy izlanishida terminga faqatgina maxsus belgi sifatida emas, balki real bir sistemaning bo‘lagi shaklida qarash zarurligini ta’kidlagan. Shundan kelib chiqib, terminni faqatgina mustaqil birlik sifatida emas alohida, baki til sitemasida boshqa birliklar bilan uzviy aloqada bo‘ladigan struktur element tarzida talqin etish zarur.

A.S. Gerd terminni ilmiy taraqqiyotning muayyan bosqichida yuzaga kelgan tushunchalarning muhim belgilarini aniq aks ettiruvchi, maxsus terminologik ma’noga ega bo‘lgan til birligi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, termin tabiiy yoki sun’iy til birliklari asosida shakllanib, ko‘pincha so‘z yoki so‘z birikmasi ko‘rinishida ifodalanadi. [4, 1-4]

Termin va umumtil so‘zlario‘rtasidagi farqni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki terminlar til tizimining maxsus qatlamini tashkil etadi va o‘ziga xos xususiyatlari bilan oddiy so‘zlardan ajralib turadi.

Qo‘llanilishi chegaralangan maxsus leksika tarkibiga terminlar, kasb-hunar leksikasi va jargonlar kiradi. Nomidan ma’lumki ushbu leksika tarkibidagi qatlamlarning nutqda qo‘llanilishi chegaralangandir. Maxsus leksika tufayli adabiy til qatlami boyib boradi. Uning asosiy qismini terminlar tashkil etadi. Termin maxsus leksika tarkibiga kirgani bilan umumiste’mol so‘zlar bilan birgalikda ishlatilsa-da, odatdagi so‘z bilan ayni bir narsa emas.

Ma’lumki, o‘tmishda Yevropada ilm-fanning dastlabki yaratuvchilari bo‘lgan qadimgi greklarda va rimliklarda termin fanniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar sifatida qo‘llangan bo‘lsa ham, bizning zamonamizga kelib bu tushunchao‘zgarishlarga uchradi: ko‘pgina olimlar termin so‘zining ma’nosini avvalgicha, ya’ni ma’lum fan va fan bilan bog‘langan texnika, san’at va madaniyatga oid hodisalar bilan belgilasalar, ba’zi bir olimlar har qanday otni termin deb hisoblashga tayyordirlar. Bu jihatdan ular termin so‘zini morfologiyadagi ot so‘zining ekvivalenti – sinonimiga aylantirib qo‘yadilar. [5, 21] Demak, termin tushunchasiga berilgan ta’riflarning xilma-xilligi uning ko‘p qirrali va murakkab hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois terminni har qanday so‘z bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Termin muayyan fan, texnika yoki boshqa maxsus soha doirasida aniq tushunchani ifodalovchi til birligi sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, termin va odatdagi muomala chog‘idagi qo‘llaniladigan so‘zlarningo‘rtasidagi farqni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Termin va umumtil so‘zlari o‘rtasidagi farqni aniqlash terminologiya fanining dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bu ikki birlik o‘zining semantik mazmuni, funksiyasinva qo‘llanish doirasi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi.

So‘z tilning asosiy birliklaridan biri bo‘lib, u narsa, hodisa, jarayon va belgilarni nomlashga xizmat qiladi. So‘z murakkab semantik tuzilishga ega bo‘lib, uning asosini tushuncha tashkil etadi. Shu bilan birga, so‘z ma’nosida emotsional-ekspressiv bo‘yoqlar ham mavjud bo‘lib, u turli nutq uslublarida – kundalik muomala, publitsistik, badiiy va ilmiy nutqda erkin qo‘llaniladi. Shuningdek, so‘z ko‘p ma’nolilik va sinonimik qatorlarga ega bo‘lishi bilan ham ajralib turadi. Masalan, umumtil doirasida qo‘llaniladigan “til” so‘zi insonning nutq organi, aloqa vositasi yoki muayyan xalqning tili ma’nolarida qo‘llanilishi mumkin.

Termin esa muayyan fan yoki soha doirasida konkret tushunchani ifodalovchi til birligi hisoblanadi. U emotsional-ekspressivlikdan holi bo‘lib, asosan, ilmiy nutqda qo‘llaniladi. Terminlarning asosiy xususiyatlar quyidagicha:

1. Aniqlik – termin asosan bitta tushunchani ifoda etishi lozim.

2. Bir ma’nolilik – terminologiyada terminlarning ko‘p ma’noligiga yo‘l qo‘yilmasligi zarur.

3. Tizimlilik – terminlar har doim o‘zaro bog‘langan tushunchalar negizida shakllanishi lozim.

4. Barqarorlik – termin ma’lum vaqt davomida o‘zgarishsiz qo‘llanilishi kerak.

5. Qisqalik va lo‘ndalik – termin ko‘p komponentlar qurshovidan holi bo‘lishi lozim.

Shuningdek terminlarning asosiy belgilaridan biri ularning mantiqiy ta’rifi-tavsifining aniq bo‘lishidir. Har bir termin muayyan tushunchaning asosiy belgilarini ifodalovchi definitsiya orqali izohlanadi. Bu esa ilmiy muloqotda aniqlik va tushunarlilikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, so‘zlar ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin bo‘lsa, terminlar odatda bir ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, umumtil doirasida qo‘llaniladigan “tarmoq” so‘zi turli ma’nolarni anglatishi mumkin, biroq telekommunikatsiya sohasida u faqat aloqa tizimining muayyan turini ifodalovchi termin sifatida qo‘llaniladi. Demak, termin va so‘z o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, so‘z ko‘p ma’nolilik, emotsionallik va uslubiy rang-baranglik bilan tavsiflansa, termin esa aniq tushunchani ifodalovchi, bir ma’noli va tizimli, barqaror birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Termin hamda terminologik leksika ham ayni bir tushunchani ifodalamaydi. Ushbu birliklarni bir-biridan farqlash muhim hisoblanadi. Terminlarning qo‘llanishi va tarqalishi muayyan terminologik sistema bilan uzviy chegaralangandir. Ular alohidalikda emas, balki ma’lum bir soha doirasida shakllangan tizim tarkibida faoliyat ko‘rsatadi. Har bir termin inson faoliyatining aniq bir yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lib, shu doiradao‘z mazmunini to‘liq namoyon etadi.

Shu bilan birga, terminologik sistema faqat tor mutaxassislik doirasida emas, balki ayrim hollarda umumiy nutq jarayoniga ham kirib borishi mumkin. Biroq bunday holatda termino‘zining dastlabki terminologik xususiyatlarini qisman yo‘qotib, umumtil birliklariga yaqinlashadi.

Texnogen jamiyat shakllanib borgani sari telekommunikatsiya sohasiga oid ayrim terminlar umumtil doirasiga kirib borib, keng qo‘llanilmoqda. Masalan, “signal” termini dastlab texnik sohada axborot hamda ma’lumotni muayyan masofaga uzatish uchun ishlatiladigan shartli yoki raqamli belgi tushunchasini ifodalagan bo‘lsa, bugungi kunda u umumiy nutqda “belgi”, “ishora” ma’nolarida ham keng qo‘llanmoqda.

Telekommunikatsiya sohasiga oid terminlar turli manbalardan shakllanadi. Ayrim terminlar maxsus soha doirasidan umumadabiy til doirasiga kirib borsa, boshqalari esa aksincha, umumtil leksikasidan olinib, termin sifatida qo‘llanila boshlaydi. Masalan, “signal” termini dastlab texnik tushuncha sifatida shakllanib, keyinchalik umumiy nutqda ham “belgi”, “ishora” ma’nolarida qo‘llanila boshlagan. Ammo “xabar” so‘zi dastlab umumadabiy tilga xos birlik hisoblanib, keyinchalik telekommunikatsiya sohasida maxsus termin sifatida qo‘llanila boshlagan. Bu jarayonda so‘zning ma’nosi aniqroq va torroq tushunchani ifodalashiga moslashadi.

Terminologiya sohasida termin va nomenklatura tushunchalariningo‘zaro nisbatini aniqlash muhim nazariy muammolardan biri sanaladi. Ushbu birliklar tashqi jihatdano‘xshash bo‘lsa-da, ularning semantik, funksional hamda tizimli xususiyatlari jihatidan muayyan tafovutlar mavjud.

Tadqiqotchilar fikricha, termin tuzilishida uchta asosiy komponent -shakl, ma’no va denotat ajralib turadi. Ushbu komponentlarning ustunlik darajasi maxsus leksik birliklarning termin yoki nomen sifatida shakllanishiga ta’sir etadi. Ayrim olimlarning e’tirof etishicha, termin va nomenklatura o‘rtasidagi farq ushbu komponentlarning ustuvorligiga bog‘liq. A.A. Ufimtseva ta’kidlashicha, agar til birligida tushunchaviy (semantik) jihat ustun bo‘lsa, u termin sifatida qaraladi.

Aksincha, agar unda real obyektga yo‘naltirilganlik, ya’ni denotativ belgi kuchli bo‘lsa, bunday birlik nomen sifatida baholanadi. [10, 10]

N.P.Kuzmin ta’kidlashicha, terminologik leksika maxsus leksikaning normativ qismi hisoblanadi va termin doimo definitsiya bilan aloqador bo‘ladi. Agar termin definitsiya bilan uzviylikni yo‘qotsa, u oddiy leksik birlik-nomenklatura belgisiga aylanadi. [7, 79] Demak, termin hamda nomeno‘rtasidagi asosiy farqlanish shakl jihatdan emas, balki semantik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda aynan nomenklatura tushunchasining xususiyatlari haqida ham turli ilmiy qarashlar mavjud. G.O. Vinokur fikricha, nomenklatura mavhum va shartli belgilar tizimi hisoblanib, u predmetlarni nomlash funksiyasini bajaradi. U asosan nazariy tafakkur bilan aloqador bo‘lmagan predmetlarni nomlash uchun xizmat qiluvchi shartli belgilar tizimi deb hisoblaydi. [2, 51]

A.A. Reformatskiy Vinokur fikrini davom ettirgan holatda nomenklatura birliklari son jihtatdan cheksiz bo‘lishi mumkinligini, terminlar esa har bir fan doirasida miqdori aniq va hisobli va tushunchalar tizimi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Nomenklatura birliklari ko‘pincha yakka holdagi predmetlarni bildiradi va hatto atoqli otlar ham bo‘lishi mumkin. [9, 46-54] Masalan, telekommunikatsiya sohasida “chastota”, “signal”, “aloqa”, “uzatish kanali”, “Gers (Hz)” kabi birliklar termin hisoblanadi va ular muayyan ilmiy tushunchalarni ifoda etadi. “iPhone 16”, “Huawei P30”, “Usell”, “Beeline” kabi nomlar esa konkret obyekt, tizim yoki standartlarni bildirganligi bois nomenklatura birliklari hisoblanadi.

Demak, terminlar ko‘proq abstrakt, umumlashma tushunchalarni ifoda etadi va ilmiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Nomenklatura esa konkret predmetlar, ularning turlari va modellarini nomlash funksiyasini bajaradi. Bu esa ularning funksiya jihatdan farqini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, terminlar va nomenlaro‘rtasidagi asosiy farq ularning vazifa va semantik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu farqlarni quyidagicha tizimga keltirish mumkin:

1. Funksional jihatdan: Termin tushunchani ifodalash hamda izohlashni bajaradi, nomenklatura esa asosan obyektlarni nomlash bilangina cheklanadi.

2. Semantik jihatdan: Terminlar umumashgan abstrakt tushunchani bildirsa, nomenlar esa konkret va yakka predmet yoki obyektni ifodalaydi.

3. Qo‘llanilish doirasi jihatdan: Terminlar muayyan terminologik tizimda qo‘llaniladi, nomenklatura esa tizimdan tashqarida hamo‘z mustaqillagini saqlab qoladi.

4. Barqarorlik xususiyati jihatidan: Nomenklatura birliklari nisbatan statik bo‘lsa, terminlar dinamik xarakterga ega bo‘lib, vaqto‘tishi bilan umumtil leksikasiga singib ketishi mumkin.

5. Qo‘llanishi sohasi jihatidan: Terminlar, asosan, ilmiy va nazariy sohalarda qo‘llaniladi. Nomenklatura esa amaliy faoliyatda ham konkret obyektlar bilan bog‘liq sohalarda ham ishlatiladi.

Terminologiya sohasida ko‘pma’nolilik hamda sinonimiya hodisalarining uchrashi ijobiy baholanmaydi. Ammo ba’zi terminologik sistemalarda muayyan tushunchalarni ifodalashda sinonim terminlarni qo‘llash ko‘zga tashlanadi. Terminologiya sohasidagi tadqiqotlarda ham termin hamda atama so‘zlaridan sinonim tarzda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 118 b.

2. Винокур Г.О. // Тр. Моск. ин-та истории, философии и литературы. Т. V. Сборник статей по языковедению. М.,1951. – 51 с.

3. Винокур Г.О. Труды по языкознанию. – М.: Наука, 1959. – 230 с.

4. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно-техническая информация. Серия 2.-М.,1991. №10. –1-4 с.

5. Жамолиддинова Д.М. Бадиий матнда терминларнинг лингвокультурологик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Тошкент – 2021. – 178 б.

6. Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. ном дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

7. Кузмин И.П// Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. М., 1970. – 79 с.

8. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2017. – 129 б.

9. Реформатский А.А. // Вопр. терминологии. 1961. – 46–54 с.

10. Уфимцева А.А Типы словесных знаков М. 1974. – 10 с.